

O‘QUVCHILARNI KASB TANLASHIDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLARNING PSIXOLOGIK YECHIMLARI

Radjabova Guljayna O‘mirzakovna

Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Qo‘ng‘irot tumani 55-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘quvchilarning kasb tanlash jarayonida duch keladigan muammolari va ularning psixologik yechimlari yoritilgan. Kasb tanlashga ta’sir etuvchi omillar, o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash masalalari hamda psixologik yordamning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, maktab psixologi, o‘qituvchi va ota-onalarning hamkorligi orqali kasb tanlashdagi muammolarni bartaraf etish yo‘llari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Kasb tanlash, kasbiy yo‘nalish, qobiliyat, qiziqish, motivatsiya, psixologik maslahat, kasbga yo‘naltirish, o‘quvchi shaxsi, psixologik diagnostika, kasbiy rivojlanish.

KIRISH

Bugungi kunda o‘quvchilarni kelajak kasbini to‘g‘ri tanlashga yo‘naltirish ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Kasb tanlash inson hayotidagi eng mas’uliyatli qarorlardan biri bo‘lib, uning kelajakdagi muvaffaqiyati va jamiyatdagi o‘rnini belgilaydi. Biroq ko‘plab o‘quvchilar kasb tanlash jarayonida turli qiyinchilik va muammolarga duch keladilar.

Kasb tanlashdagi asosiy muammolardan biri o‘quvchilarning o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini yetarlicha bilmasligidir. Ayrim o‘quvchilar o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini to‘g‘ri baholay olmaydilar. Natijada ular qiziqishlariga mos bo‘lmagan kasblarni tanlashga moyil bo‘ladilar. Bu esa kelajakda kasbiy qoniqmaslik va mehnat faoliyatida qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Yana bir muhim muammo ota-onalar yoki atrofdagilarning bosimi ostida kasb tanlash holatlaridir. Ba’zi oilalarda farzandning qiziqishi emas, balki ota-onaning istagi ustuvor bo‘ladi. Natijada o‘quvchi o‘ziga mos bo‘lmagan kasbni tanlashga majbur bo‘ladi. Bu esa uning motivatsiyasi va kasbiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Kasblar haqidagi ma’lumotlarning yetarli emasligi ham muammolarning asosiy sabablaridan biridir. O‘quvchilar zamonaviy kasblar, mehnat bozori talablari va turli sohalarning imkoniyatlari haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lmasligi mumkin. Shu sababli kasb tanlashda xatolarga yo‘l qo‘yiladi.

Mazkur muammolarni bartaraf etishda psixologik diagnostika muhim ahamiyatga ega. Psixologik testlar, so‘rovnomalar va suhbatlar orqali o‘quvchilarning qobiliyatlari, qiziqishlari va kasbiy moyilliklari aniqlanadi. Bu esa ularga o‘z imkoniyatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Maktab amaliyotchi psixologi tomonidan tashkil etiladigan kasbiy maslahatlar o‘quvchilarning kasb tanlashdagi ikkilanishlarini kamaytiradi. Individual va guruhviy suhbatlar davomida o‘quvchilarga turli kasblar haqida ma’lumot beriladi hamda ularga ongli tanlov qilish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Kasb tanlash jarayonida o‘quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish ham muhimdir. Psixologik treninglar orqali o‘quvchilarda o‘ziga ishonch, mas’uliyat hissi va kelajakni rejalashtirish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Otalar bilan hamkorlik qilish ham samarali natija beradi. Psixolog va pedagoglar otalarga farzandining qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olish zarurligi haqida tavsiyalar berishi lozim. Oila tomonidan ko‘rsatiladigan ma’naviy qo‘llab-quvvatlash o‘quvchining to‘g‘ri tanlov qilishiga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida kasbga yo‘naltirish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar. Bugungi kunda maktab o‘quvchilarini, qobiliyat qiziqish va moyilliklarini to‘g‘ri tashxislab, tashxis xulosalaridan kelib chiqqan xolda ularni to‘g‘ri va ongli kasb tanlashlariga erishishga ko‘maklashish, xalq ta’lim tizimining dolzarb masalalaridan biridir. O‘spirinlik yoshi davridagi har bir shaxsda kasblarga, kasb tanlashga bo‘lgan qiziqish, ishtiyoq va moyilliklar o‘zining eng yuqori bosqichiga ko‘tariladi. Bu davrda o‘spirinlar psixologiyasi o‘zgacha emotsionallik kasb etadi. Bu holat o‘spirinlarda har qanday voqea va hodisalarga kuchli his-tuyg‘u (ta’sirlanish) bilan munosabat bildirishlari, o‘ta qiziquvchanlik kayfiyati, ishonuvchanlikning ortishi, axborot to‘plash va uni almashishga bo‘lgan ishtiyoqning ortishi, o‘zi uchun nufuzli, aziz deb bilgan kishilarni ideallashtirishga bo‘lgan moyillikning paydo bo‘lishi kabi ehtiyojlarning keskin namoyon bo‘lishi va turg‘unlik kasb etishi tarzida ko‘rinadi.

Ammo shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, kasbni tasodifan tanlash ba’zan o‘quvchilarda og‘ir ichki kechinmalar, umidsizliklar, ikkilanishlar va ruhiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Bunday har-xil munosabatlar yuz berishining asosiy sabablaridan biri maktab o‘quvchilarining kasb tanlash jarayonida turli motivlarning namoyon bo‘lishidir. Motivlar o‘rtasidagi kurash ularning u yoki, bu qarorga olib keladi. Voqelikka ongli munosabatda bo‘lish esa o‘quvchilarda ob’ektiv va qat’iy qarorni qabul qilishni keltirib chiqaradi. Shu o‘rinda o‘quvchining biror kasbga va fanga moyilligi, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi, unga intilishi, salomatligi, asab tizimi xususiyatlari va temperamenti bilan bog‘liq motivlarni sanab o‘tish mumkin.

Kasb tanlashning ijtimoiy jihatdan tashqari psixologik asoslari ham mavjuddir. Jumladan ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Kasblarni o`rganish metodlarini ishlab chiqish va ularni muayyan guruhlariga ajratish;
- Kasb maorifi yuzasidan tashviqot ishlarini olib borish;
- O`quvchilarni kasb guruhlari, ya`ni professiogrammalar bilan tanishtirish;
- O`quvchilarning mehnat ta`limida kasbga tayyorgarligini aniqlash va unga nisbatan mehr uyg`otish;
- Diagnostik metodikalarni amaliyotga tadbiiq qilish va ularni muhitga, vaziyatga moslashtirish;
- Kasb tanlash xonalarini yuksak saviyada jihozlash;
- Professional saralash ishlarini o`tkazishda konsiliumga e`tibor berish va boshqalar.

O`quvchilarda tug`ma layoqat, qobiliyat, iste`dod, qiziqish va kasbga bo`lgan moyillikning shakllanishi hamda rivojlanishi kasbga yo`naltirish tizimining muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ushbu jarayonlar kasb-hunar maorifi, kasbga yo`naltirish, kasbiy maslahat, kasbiy saralash, kasbga moslashish va kasbiy tarbiya kabi yo`nalishlar orqali amalga oshiriladi.

Kasbiy maslahat o`quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, salomatlik holati, qiziqishlari, qobiliyatlari, intellektual rivojlanish darajasi va kasbiy moyilligini o`rganishga qaratilgan faoliyatdir. Olingan ma`lumotlar asosida mutaxassislar tomonidan o`quvchiga ilmiy asoslangan tavsiyalar beriladi. Bunda psixologik testlar, anketa va so`rovnomalar, kuzatish hamda boshqa diagnostik metodlardan foydalaniladi.

Kasbga yo`naltirish esa pedagoglar, psixologlar, shifokorlar va boshqa mutaxassislarning hamkorligida yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash jarayonidir. Bu jarayonda o`quvchilarga turli kasblarning mazmuni, mehnat sharoiti va kasb egasidan talab etiladigan sifatlar haqida ma`lumot beriladi.

Kasbga yo`naltirishda uchta muhim jihatga e`tibor qaratish lozim:

- jamiyat va mehnat bozorining mutaxassislarga bo`lgan ehtiyojini hisobga olish;
- o`quvchilarning qiziqish va qobiliyatlariga mos kasb tanlashiga ko`maklashish;
- yoshlarning jamiyatda o`z o`rnini topishiga yordam berish.

Kasbiy saralash jarayonida o`quvchilarning muayyan kasbga layoqati, jismoniy va psixologik imkoniyatlari aniqlanadi. Bunda kasb talablari bilan shaxsning individual xususiyatlari o`zaro taqqoslanadi. Har bir o`quvchi ma`lum bir kasbni bir xil darajada o`zlashtira olmasligi sababli, kasbiy yaroqlilikni oldindan aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasb tanlashning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq. Shu sababli o‘smirlarning ehtiyojlari, qiziqishlari va kasbiy yo‘nalganligini psixodiagnostik metodlar yordamida o‘rganish zarur. Bu esa kasb tanlashdagi xatolarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Sharq mutafakkiri Abu Ali ibn Sino ham yoshlarni tarbiyalash va kasbga yo‘naltirishda shaxsiy namuna, ijobiy ta‘sir va individual yondashuvning muhimligini ta‘kidlagan. Uning fikricha, bolani qattiq jazolashdan ko‘ra, tarbiyaviy ta‘sir va ibrat samaraliroq natija beradi. Kasbga yo‘naltirish jarayonida quyidagi vazifalarni amalga oshirish muhim hisoblanadi:

- o‘quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlarini aniqlash;
- individual-psixologik xususiyatlarini diagnostika qilish;
- kasbiy qiziqish va moyilliklarni o‘rganish;
- kasblar haqidagi ma‘lumotlar bazasini kengaytirish;
- ota-onalar va o‘qituvchilar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- mehnat ta‘limi orqali dastlabki kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish;
- kasb tanlash bo‘yicha targ‘ibot va maslahat ishlarini tashkil etish.

Kasbga yo‘naltirish o‘quvchining qobiliyati, qiziqishi, psixologik va jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladigan murakkab va uzluksiz jarayondir. Mazkur jarayonning to‘g‘ri tashkil etilishi yoshlarning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati va hayotdan qoniqish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarni kasb tanlashida uchraydigan muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga psixologik yordam ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega. Psixologik diagnostika, kasbiy maslahatlar, treninglar va oila bilan hamkorlik o‘quvchilarning qobiliyatiga mos kasb tanlashiga xizmat qiladi. To‘g‘ri tanlangan kasb esa shaxsiy muvaffaqiyat va jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘oziev E.G. Kasb psixologiyasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
2. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya. — Toshkent, 2018.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. — Toshkent: Sharq, 2020.
4. Klimov Ye.A. Kasb tanlash psixologiyasi. — Moskva, 2016.
5. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi. — Toshkent, 2019.
6. Ziyo.net